

Farg'ona viloyatida kimyo sanoati sohasidagi tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o'tkazildi.

// 20.07.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uchrashuv20260720>

Farg'ona viloyati hokimligida kimyo sanoati sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar bilan ochiq muloqot tashkil etildi.



Tadbir Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, "O'zkimyosanoat" AJ hamda Farg'ona viloyati hokimligi hamkorligida o'tkazildi. Unda tarmoqda mavjud muammolar, ularni hal etish mexanizmlari, ishlab chiqarishni rivojlantirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga doir takliflar muhokama qilindi.



Ta'kidlanganidek, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini o'rganish, iqtisodiyot tarmoqlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish maqsadida Farg'ona viloyatiga Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi birlashtirilgan. Mazkur yo'nalishda

tarmoqlar kesimida "O'zkimyosanoat" AJ hamda to'rtta ilmiy tashkilot mas'ul etib belgilangan.



Tadbir yakunida ishtirokchilarning savollariga atroflicha javob berildi hamda kimyo sanoatida tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ilmiy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab olindi.

